

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi
Navoiy davlat konchilik instituti

“Pedagogika va gumanitar fanlar” kafedrası

Referat

Fan: O`zbek tili

Mavzu: Adabiyot bo`stonining chinori

Topshirdi: 8-10 GEM guruh talabasi Istablayev F.

Qabul qildi: G`aniyev N.

NAVOIY-2011

ADABIYOT BO`STONINING CHINORI

So`zim oxirida odil sudlardan surayman: garchi men turli bo`hton, shaxsiyat va soxtalar bilan... ikkinchi oqlanmaydurg`on bo`lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko`zlarning ko`ngli uchun bo`lsa ham menga eng oliy bo`lg`on jazoni bera ko`ringiz. Ko`nglida shamsi g`uboroti, teskarichilik maqsadi bo`lmag`on sodda, ... vijdonli yigitga bu qadar xo`rlikdan o`lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma`naviy o`lim bilan o`ldirildim. Endi jismoniy o`lim menga qo`rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so`rayman.

1926- yil 15- iyun, Samarqand
(A. Qodiriyning *suddagi nutqidan*)

Nomus, insof va haqgo`ylik Abdulla Qodiriy hayotining asosiy tamoyillari edi. Tabiat in`om qilgan qodir iste`dod chinakam o`zbekona mehnatkashlik bilan uyg`unlashgani uchun Qodiriyning qalamidan asrlar mobaynida eskirmaydigan asarlar bunyod bo`ldi.

U Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida romanchilik bobida ustoz san`atkor sifatida yakdillik bilan tan olingan va hozirgi zamon o`zbek adabiyoti shuhratini jahon miqyosiga olib chiqqan adiblardan biridir.

Abdulla Qodiriy 1894-yil 17-aprelda Toshkent shahri Beshyog`och dahasi Eshonguzar mahallasida tug`ilgan. Otasi Qodir ota avval do`kondorlik-tijorat bilan shug`ullangan, keyincha bu sohada ishi yurishmay qolgach dehqonchilik bilan shug`ullangan. Abdulla tug`ilganda Qodir ota yetmish yoshdan oshgan edi, u yana yigirma yilcha umr ko`rib, 1924-yilda vafot etdi. Abdullaning onasi Xosiyat bibi ham bola tarbiyasidan bo`shagan vaqtlarida eriga dehqonchilik ishlarida yordam berardi.

Abdulla Qodiriy ijodi 1913-1914-yillarda boshlandi. U shu yillari barcha ilg`or fikrli yoshlar qatori jadidchilik harakatiga qo`shilgan va o`zining ilk

asarlarida ma'rifat, millat taraqqiyoti va hurligi g'oyalarini targ'ib eta boshlagan. Qodiriy dastlab ma'rifiy she'rlar yozdi. «Ahvolimiz», «Millatimiz», «To'y» kabi she'rlari jadid matbuotida e'lon qilinadi.

1915-yili u Behbudiyning «Padarkush» fojiasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» pesasini yozadi. So'ng o'zi «milliy ro'mon» deb atagan «Juvonboz» hikoyasini yaratadi.

Bu asarlar ham avvalo ma'rifatparvarlik qarashlari mahsuli bo'lib, jamiyatdagi chirkin illatlar va qoloq urf-odatlarini keskin tanqid qilishga yo'naltirilgan.

Abdulla Qodiriy 20-yillarda o'tkir, dahshatli feletonlari va zaharxanda maqolalari bilan "Felyetonlar qiroli" deb shuhrat qozongan. Abdulla Qodiriy feletonlari va hajviy, tanqidiy maqolalarida ellikdan ortiq taxallus ishlatadi (Julqunboy, Dumbulboy, Jiyan, Kalvak Maxzum, Toshpo'lat tajang, Ovsar, Shapalaq Mazxun, Shoshiy, Moshxo'rdachi va h.k.).

Abdulla Qodiriyning ulkan iste'dodi "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" asarlarida ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi.

"O'tgan kunlar" romani Abdulla Qodiriy nasrining cho'qqisidir. Mazkur roman to'la ma'noda haqiqiy milliy romandir.

Tug'ma qobiliyat egasi bo'lmish Abdulla Qodiriyning aql-zakovati, ilmiy tafakkuri va badiiy didi nihoyatda yuksak edi. Uning o'zida o'zbek xalqining xarakteri, tabiati, psixologiyasi, ruhiyati, obrazli fikrlash tarzi, til va tafakkur olami mujassamlashgandir.

Abdulla Qodiriy o'z romanlarida o'zbek xalqining yaqin o'tmish tarixidagi

o`ziga xoslikni teran ilg`ab oldi va o`zbek xalqining adolatli tuzum, adolatli hukmdor to`g`risidagi, insoniylik, odamiylik, poklik, sevgi erki va oila to`g`risidagi, zulm va pastlikni, yomonlikni qoralovchi qarashlarini, nuqtai nazarini aks ettirdi. Avvalo shuni aytish kerakki, Qodiriy romanlaridagi inson erki uchun kurash g`oyasi adolatli tuzum, odil hukmdor, tinch-totuvlikda yashash orzu-armoni bilan jips bog`lanib ketgan.

Abdulla Qodiriy romanlaridagi milliy ruh tashqi tomondan juda oddiygina bo`lib ko`ringan nuqtalarda, masalan, hatto qahramonlarning bir-biriga murojaatlarida ham yaqqol ko`rinib turadi. Ingliz, fransuz, nemis xalqlarida odamlar bir-biriga murojaat etganda qo`llanadigan maxsus so`zlar bor (miss, mister kabi). O`zbeklar orasida jinsi, yoshi, mavqeiga qarab murojaat etadigan so`zlar juda ko`p. Abdulla Qodiriy o`z romanlarida bunday so`zlardan ko`p va o`rinli foydalanadi. “O`tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlarida begim, bek aka, jiyan, opa, singil, amaki, aka, bekachim, mulla aka, usta aka, fuqaro, janobingiz, taqsir, taqsirim kabi so`zlar uchraydi.

Mazkur kuzatishlardan ma`lum bo`lib turibdiki, Abdulla Qodiriy asarlaridan o`zbekning hidi kelib turadi, o`zbek ruhi jo`sh uradi, o`zbek kuyi jaranglaydi, o`zbek tilining butun jozibasi lovullab turadi. O`zbek badiiy tafakkur tarzi yaraqlab ko`rinadi, uning adolatparvarlik, erkinlik, insonparvarlik, do`stlik tuyg`ulari mavjlanadi, odobi, sharmu hayosi, mehr-oqibati, g`urur va sururi, mardligi, vatanparvarligi aks etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, adibimizning milliy adabiyotimizga qo`shgan hissasi beqiyos bo`lib, asarlarida tasvirlangan voqea-hodisalar, kishilarning bir-

birlariga boʻlgan munosabatlari, millatga xos urf-odatlar, mehr-oqibat, sadoqat, yuksak insoniy madaniyat kabi qadriyatlar yuksak milliy tavor ob'ektiga ega.

Koʻr bizning ahvolimiz, gʻaflatda qanday yotamiz,
Joy kelgan chogʻida vijdonni pulgʻa sotamiz.
Oʻgʻlimizga na adab, na fan, na yaxshi soʻylamak
Na xudoni buyrugʻi bulgan ulum oʻrgotamiz-
Oʻrtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyguchi,
Biz ani dahriy sanab, tufangcha birla otamiz.
Keling, yoshlar, ziyolilar. bu kun gʻayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uygʻotamiz...

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008-yil.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998-yil.
3. Nasriddinov F. Adibning yoʻli. – T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1971-yil.
4. Oybek. Abdulla Qodiriyning ijod yoʻli. Mukammal asarlar toʻplami. 14-tom, T.: “Fan”, 1979-yil.
5. Habibullo Qodiriy. Otam haqida (xotiralar), T.: 1984-yil.
6. Abdurahmonov Gʻ. Mamajonov S. Oʻzbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1995-yil.